

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING XAVFSIZLIK SIYOSATIDA TASHQI TA'SIRLAR VA AFG'ONISTON MASALASI

Olimjonov Oyatbek Bunyodjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi

Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti 1 kurs talabasi

Oyatbekolimjonov222@gmail.com

+998946711307

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15833381>

Annotatsiya. ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik siyosatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Xususan, Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik, Tolibon harakatining hokimiyatga kelishi, migratsion bosim va ISHID-K terroristik guruhining tahdidlari mintqa uchun muhim xavf manbalari sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, Rossiyaning ODKB orqali mintaqaviy xavfsizlikka aralashuvi, harbiy bazalar, iqtisodiy ta'sir vositalari va geosiyosiy manfaatlari asosida mintaqadagi ta'sir kuchi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, xavfsizlik siyosati, Afg'oniston, Tolibon, ISHID-K, ODKB, Rossiya, geosiyosiy ta'sir, qochqinlar, harbiy hamkorlik.

Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik siyosati mintaqaning ichki va tashqi xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishga, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilishga, hamda xalqaro barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu siyosat mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarini hisobga olgan holda rivojlanib, ko'p qirrali yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi uchun Afg'onistonning o'zi bir munozarali masaladir. Ushbu davlat terrorizm va ekstramizm, narko-biznes o'chog'i sifatida ko'plab muammolar tug'dirishi bilan birga noqonuniy migratsiya va qochqinlar borasida ham uzoq vaqt davomida mintqa davlatlariga qiyinchilik tug'dirdi. Xususan, 2021-yilda Tolibon hokimiyatni egallashi bilan minglab afg'on qochqinlari Tojikistonga o'tishga harakat qilishdi. Shu yilning iyul-avgust oylarida Tojikistonga taxminan 2000 dan 3000 gacha afg'on qochqinlari kirgan. Afg'onistonlik qochqinlarning Tojikiston tomon talpinishlariga asosiy sabab - mintaqadagi Afg'oniston bilan eng uzun chegaraga (1300 km) ega ushbu davlat bu aynan Tojikistondir. Bundan tashqari O'zbekiston ham ta'sirdan chetda qolmadi. 2021 yil avgustida, Afg'onistonning Tolibon qo'lga o'tishi bilan bir nechta yuzlab afg'on qochqinlari O'zbekiston orqali chiqishga harakat qildi.

O'zbekiston bu davrda ko'plab qochqinlarni vaqtincha qabul qilgan. Avgust oyida, O'zbekiston orqali 1,500 ga yaqin afg'on harbiylari va ularning oilalari kirgan va O'zbekiston tomonidan qabul qilingan. O'zbekiston rasmiylari BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qochqinlarni qayta joylashtirishga yordam berishgan. Biroq, hozirgi kunda "Afg'on migratsion hujumi" sezilarli kamaygan va bu ortiq Markaziy Osiyo uchun uncha katta muammo hisoblanmaydi. Lekin, Afg'onistondagi ISHIDning Huroson filiali (ISHID-K) ekstremistik mafkuralarni mintaqadagi mamlakatlarga tarqatishda yoki mamlakat sharqidagi qo'shni davlatlarning chegara xavfsizligiga putur yetkazish borasida ko'plab muammolar tug'dirishi mumkin. Hozirgi kunda ushbu tashkilot Tolibon bilan ham kurashni davom ettirmoqda. Lekin, bu guruh hozirgi davrda ilgorigidek kuchli emas, biroq o'z

mafkuralari bilan qo'shni mamlakatlarni qo'rqita oladi. Tolibonning hokimiyatga kelishi esa Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog'iston uchun jiddiy xavfsizlik tahdidlarini yaratdi. Afg'onistonning beqarorligi terrorizm va radikalizmning Markaziy Osiyoga tarqalish xavfini oshiradi. Shu sababli ham Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun Tolibon bilan diplomatik aloqalarni saqlab, chegara xavfsizligini kuchaytirdi. Afg'onistonning qo'shni davlatlari Tolibon bilan o'zaro munosabatlarni saqlab qolishga va dialog yo'li bilan beqarorlik tahdidini boshqarishga harakat qilmoqdalar.

O'zbekiston Tolibon bilan ochiq diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan birinchi davlatlardan bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. O'zbekiston va Tolibon o'rtasidagi muloqot Tolibonning Afg'onistonni boshqarishda xalqaro tan olinishida muhim rol o'ynamoqda. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari Tolibon bilan muvozanatli siyosat yuritishga, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan bo'lsa-da, xavfsizlik tahdidlarini boshqarishda ham ushbu davlatga diqqatni qaratmog'i lozim. Tolibon hukumatining xalqaro e'tirofi hanuz noaniq bo'lib qolmoqda, biroq Markaziy Osiyo davlatlari pragmatik yondashuv orqali ushbu hukumat bilan muloqotni davom ettirishga harakat qilmoqda.

Markaziy Osiyoning xavfsizlik siyosatida tashqi ta'sirlar ham asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, Rossiyaning Markaziy Osiyoga ta'siri bu borada muhokamaga arzigulik masaladir. Rossiyaning Markaziy Osiyo xavfsizlik tizimiga ta'siri va tahdidlari geosiyosiy, iqtisodiy, harbiy va strategik omillar bilan bog'liq bo'lib, bu mintaqada Rossiyaning muhim o'rni va ta'sir doirasini belgilaydi. Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan uzoq tarixiy va siyosiy aloqalarga ega bo'lib, mintaqadagi xavfsizlik masalalarida muhim rol o'ynaydi.

Xususan, geosiyosiy ta'sirga to'xtalsak, Markaziy Osiyodagi ba'zi davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga (ODKB) a'zo bo'lib, bu tashkilot Rossiya yetakchiligidagi harbiy blok hisoblanadi. ODKB orqali Rossiya mintaqadagi harbiy hamkorlikni nazorat qiladi va o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qiladi. ODKBning asosiy maqsadi harbiy tahdidlarga qarshi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'lsa-da, bu tashkilot ko'pincha Rossiyaning geosiyosiy manfaatlariga xizmat qiladi. Ushbu fikrga real isbot sifatida 2022-yilning yanvarida Qozog'istondagi ijtimoiy tartibsizliklarga qarshi tashkilotning harbiy aralashuvini keltirishimiz mumkin. 2022-yilning yanvar oyida Qozog'istonda yoqilg'i narxining oshishi sababli katta miqyosda norozilik namoyishlari boshlandi. Bu namoyishlar tezda keng ko'lamli tartibsizliklarga aylanib, hukumat inshootlari va banklar talon-toroj qilindi, bir nechta shaharlar, xususan, Olmaota shahrida tartibsizliklar kuchaydi. Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev norozilik namoyishlarini "bahsli ta'rifda" deb atab, ODKBdan yordam so'radi. Bu tashkilotning Nizomiga muvofiq, tashkilot a'zosi bo'lgan davlat xavfsizlikka jiddiy tahdid bilan yuzlashsa, boshqa a'zo davlatlar harbiy yordam ko'rsatishi mumkin edi. Rossiya yetakchiligidagi ODKB davlatlari zudlik bilan 2 500 nafar tinchlikparvar kuchlarini Qozog'istonga jo'natdi. Bu kuchlarning asosiy qismini Rossiya harbiylari tashkil etdi. Ular Qozog'istondagi strategik obyektlarni himoya qilish bilan shug'ullandi va hukumatning tartibsizliklarga qarshi choralar ko'rishiga yordam berdi.

Qozog'istonga ODKB kuchlarining kirishi orqali Rossiya mintaqada o'zining asosiy xavfsizlik kafili va himoyachisi ekanligini ko'rsatdi. Bu harakat Rossiyaning Markaziy Osiyoda ta'sirini yanada mustahkamladi va Qozog'istonni Rossiyaga yanada yaqinlashtirdi. Qozog'iston

va Rossiya o'rtasidagi ittifoqchilik va strategik hamkorlik munosabatlari kuchaydi. Toqayev hukumati Rossiyaga qarshi har qanday ichki yoki tashqi bosimlarga qarshi mustahkam sheriklikka tayanganligini namoyon etdi. ODKB aralashuvi orqali Rossiya G'arb davlatlari yoki boshqa tashqi kuchlarning Qozog'iston ichki siyosatiga aralashuvini oldini olishni ta'minladi. Shuningdek, Qozog'istonning G'arb davlatlariga yaqinlashishi ehtimolini kamaytirdi. Bu holatlar esa o'z navbatida, ODKBning Rossiya manfaatlariga xizmat qilishini yaqqol ko'rsatadi, chunki tashkilotning asosiy harakatlarini Rossiya boshqardi va mintaqadagi ta'sirini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Qisqa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy o'yinlarning markazida joylashgan. Rossiya mintaqadagi o'zining siyosiy va iqtisodiy ta'sirini saqlash uchun Markaziy Osiyoni o'z ta'sir doirasi sifatida ko'radi va harbiy, siyosiy hamkorlik orqali o'z rolini kuchaytirishga harakat qiladi. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi va AQShning mintaqadagi manfaatlari Rossiyaning Markaziy Osiyodagi mavqeiga qarshi bo'lishi mumkin va bu tahdid Rossiyaning ta'sirini yo'qotishiga olib kelishi ehtimoli bor. Shuning uchun Rossiya Markaziy Osiyo davlatlarida harbiy bazalarini saqlab qolmoqda, bu mintaqadagi Rossiyaning xavfsizlik siyosatida katta rol o'ynaydi. Masalan, Tojikistonda Rossiyaning harbiy bazalari mavjud va ular bu davlatning xavfsizlik tizimiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qirg'izistondagi "Kant" harbiy bazasi ham Rossiyaning harbiy ta'sirini mustahkamlaydi. Ushbu harbiy bazalar orqali Rossiya mintaqada harbiy-siyosiy nazoratni saqlab qolishga intiladi. Bundan tashqari Rossiya mintaqadagi davlatlar bilan muntazam ravishda qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazadi. Bu harbiy hamkorlik Rossiyaning mintaqadagi xavfsizlik tizimida chuqur ishtirokini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Rossiya tomonidan olib borilayotgan harbiy hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqil harbiy qudratini cheklashi mumkin. So'nggi vaqtlarda Rossiyalik ayrim siyosatchilarning Markaziy Osiyo davlatlarining milliy o'zligini va suverenitetini inkor etuvchi bayonotlari Rossiyaning mintaqadagi manfaatlarining ziddiyatli jihatlarini yanada ochib berdi. Shuningdek, Kreml faqat harbiy va geosiyosiy yo'llar bilan emas, balki iqtisodiy yo'llar bilan ham mintaqa davlatlariga ta'sir o'tkazishga intiladi. Xususan, Rossiya Markaziy Osiyoning energetika resurslari ustidan nazoratni saqlab qolishga harakat qiladi. Ushbu davlat Gazprom orqali Markaziy Osiyoning tabiiy gaz va neft resurslarini nazorat qilib, mintaqadagi davlatlarning energetika bo'yicha Moskvaga qaramligini saqlashga urunadi. Energetika bo'yicha o'zaro qaramlik Rossiyaga mintaqadagi davlatlar xavfsizlik tizimiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga Rossiyadagi mehnat migrantlarining katta qismi Markaziy Osiyodan kelgan bo'lib, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston fuqarolari Rossiyada mehnat qilish orqali o'z davlatlariga katta miqdorda mablag' yuboradilar. Bu iqtisodiy aloqalar Rossiyaning mintaqa davlatlari iqtisodiyoti va xavfsizlik tizimiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Rossiya migrantlar oqimini boshqarish orqali davlatlar bilan siyosiy muzokaralarda foyda ko'radi. Xullas, Rossiya Markaziy Osiyoda xavfsizlik tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, biroq bu ta'sir turli darajadagi tahdidlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Harbiy bazalar, ODKB doirasidagi hamkorlik, iqtisodiy aloqalar va dezinformatsiya kabi vositalar orqali Rossiya o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, Xitoyning mintaqada kuchayishi va xalqaro tahdidlar, xususan, Afg'onistonning beqarorligi Rossiyaning o'z mavqeini mustahkamlashga intilishiga turtki bo'lmoqda. Mintaqadagi davlatlar Rossiya bilan xavfsizlik bo'yicha yaqin hamkorlikni davom ettirsa-da, Rossiyaning ta'siridan mustaqil bo'lishga intilishlari ham kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyo xavfsizlik tizimi murakkab va o'zaro bog'liq geosiyosiy, harbiy, iqtisodiy, va ijtimoiy omillar bilan belgilangan. Ushbu tizimda Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik davlatlarning ta'siri sezilarli darajada, lekin mintaqaning ichki xavfsizlik muammolari, xususan, chegara nizolari, etnik to'qnashuvlar va terrorizm tahdidlari ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizim nafaqat ichki muammolarni hal qilishni talab qiladi, balki global kuchlar o'rtasidagi raqobat ta'sirini boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Mintaqaning xavfsizligi barqarorlik va mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi orqali ta'minlanishi mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisoboti. 2010-yil. Mart. Vena; 13-b (www.unodc.org > Afghanistan_opium_survey_2009_web)
2. The Soufan Group "Foreign Fighters in Syria and Irak" 2014-yil. Iyun. Nyu-York; 8-b, 17-b, 24-b (<https://thesoufancenter.org/wp-content/uploads/2017/05/TSG-Foreign-Fighters-in-Syria-Final-with-cover-rebrand-031317.pdf>)
3. ISIS the State of Terror by Berger. 2015-yil. Nyu-York
4. BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR), Global Trends, 2021-yil. Jeneva. www.unrefugees.org
5. Reuters 2022-yil. 7- yanvar bayonoti. Reuters
6. The central Asia-Caucasus Institute (CACI) www.cacianalyst.org
7. https://en.wikipedia.org/wiki/2021_Taliban_offensive
8. Wikipedia – "Fall of Kabul (2021)" maqolasi: [https://en.wikipedia.org/wiki/Fall_of_Kabul_\(2021\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Fall_of_Kabul_(2021))
9. Fayziyev I. Sh. & Toshpo'latov A. (2022) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN OLDINGI VA KEYING SIYOSIY HAYOTI. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development Volume-10, Nov., 2022 31-34b
10. Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178.
11. Temirov, J. ., & Toshpo'latov , A. (2023). TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Наука и инновация, 1(28), 29–32.
12. Umarova , G. ., & Toshpo'latov , A. . (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55.
13. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 30–31.
14. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27–29.